

## AMIR TEMUR AYOLLARI VA TEMURIY MALIKALARING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI TA'SIRI

*Shamsiddinova Shaxnoza G'ayrat qizi*

*2-kurs O'zMU magistranti*

**Annotatsiya:** Temuriylar xonadonining mashhur malikalarining davlat boshqaruvidagi bevosita va bilvosita ta'siri, ularning oila-nikoh masalalari, xonadon malikalik an'analari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** *Saroy Mulk xonim, Gavhar Shod begin, Xonzoda begin, mahfiy xizmat, uzuk-muhr.*

O'rta asrlar tarixini tadqiq etar ekanmiz, davlat boshqaruvida nafaqat hukmdorni va o'z navbatida saroy malikalarining ham ishtirokini kuzatamiz. Ammo malikalarining davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini o'sha davr an'analariga muvofiq juda kam hollarda yoritilganligi shu mavzuda tadqiqot olib borishga sabab bo'la oladi. Tadqiqot doirasida o'sha davr muarrixlari Ibn Arabshoh, Abdurazzoq Samarqandiy va Xondamir kabilarning asarlari alohida qiymatga ega.

Amir Temur xaramidagi mashhur malikalardan Saroy Mulk xonim Amir Temur nikohiga 1370-yilda Amir Husayn vafotidan keyin kirgan. Ammo Saroy Mulk xonim Amir Temurdan farzand ko'rmagan, lekin Sohibqiron o'z o'g'li Shoxrux Mirzoni, nabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug'bek Mirzolarni bevosita zukko Saroy Mulk xonim tarbiyasiga topshirgan edi<sup>1</sup>. Bu esa malikaning saroy ahli orasida Temurning eng ishonchli shaxsiga aylanganidan dalolat berardi. Bundan ko'zlangan yana bir maqsad mamlakat kelajagi aynan mamlakat vorislarining yaxshi bilim va tarbiya olishlariga bog'liq bo'lib, bu davlat ahamiyatiga molik masala edi.

Saroy Mulk xonim Amir Temurga ham siyosatda ham umr yo'lida yaxshi hamroh bo'ldi. Temur har ishda Saroy Mulk xonimdan maslahatlariga qulqoq tutar, safarga ketar chog'i esa sultanat boshqaruvini ishonib topshirar edi. Manbalarda, Temur ayolini o'zi bilan uzoq harbiy safarlarga ham olib chiqishi qayd etib o'tilgan. Xususan, Saroy Mulk xonim ayol boshi bilan Samarqanddan Iroqqa qadar bo'lgan o'ta olis yo'lni Amir Temur yonida bирgalikda bosib o'tganligi to'g'risida asarlarda keltirilgan<sup>2</sup>. Bundan tashqari malika Temur topshirig'iga ko'ra, 1387-yilda malika

<sup>1</sup> Файзисев Т. Темурий маликалар. – Тошкент: Абдулла Кодирий, 1994. – 6 б.

<sup>2</sup> Равшанов П. Амир Темур сулоласи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 83 б.

Temurning Ko'kcha dengiz (Urmiya ko'li) atrofida qurgan qarorgohiga shahzodalar Shohruh mirzo va Xalil Sulton bilan tashrif buyuradi<sup>3</sup>. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy Sohibqiron bundan behad quvonganligini ham ta'kidlab o'tadi. Zero safar chog'ida hukmdor o'z yaqinlari bilan diydorlashishi uni zafar quchishiga yana bir turtki bo'lган bo'lishi ham mumkin.

Sohibqiron yurishlari paytida ham oilaviy udumlarni bekamu ko'st ado etish ham Katta xonim zimmasida bo'lган. Xondamir esa o'zinig "Xabib us-siyar" asarida Amir Temurning besh yillik urushdan (1392-1396-yillar) Xamadondan Samarqandga qaytish chog'ida Sulton Baxt Begim, Saroy Mulk xonim, Tuman Og'o va boshqa bilqissiymo xotinlar amirzoda Shohrux bilan qabul qilingan istiqbol qonunlaridan juda mamnun bo'lgandagini qayd etib o'tadi<sup>4</sup>.

Yuqoridagi Xondamirning asarida quyidagi voqelik ham keltirib o'tilgan: "Shahar xavfsizligi amirlari hukmiga binoan, ul jamoani qo'lga olib, so'roqlar va gunohlar isbot etilgandan so'ng, Amir Muso Saroy Mulk xonimning shafoati bilan (chunki Amir Muso uning singlisini o'g'li edi), Xizr Yassuriyning o'g'li esa Amir Sayfuddinning iltimosi bilan (chunki uning singlisi Amir Sayfudinning nikohida edi) jazodan qutulib qoldilar."<sup>5</sup>. Bu ma'lumotlarga asoslanib, Saroy Mulk xonim siyosiy hayotda ham faol bo'lib xatto hukmdor farmonini o'zgartira oladigan darajada ishonchli shaxs degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Saroy Mulk xonim davlat va mamlakat idorasiga oid qurultoy, kengash ishlarida to'g'ridan-to'g'ri qatanshish huquqi bo'lмаган holda malika u yoki bu masala yuzasidan Amir Temurga yozma ravishda murjaat qila oladigan birdan-bir shaxslardan edi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bunday hukmdorga xat bilan murojaat qilish faqat chet ellik hukmdorlaga mumkin bo'lган<sup>6</sup>. Demak, zukko malikaning boshqa davlatlar miqyosida ham Temur kabi obro'si yuqori bo'lган.

Saroy Mulk xonim davlat boshqaruvidagi ishtirokidan tashqari Temurga harbiy yurishlardagi zafarlarida ham ko'mak berib turgan. Malikaning shaxsiy razvedka hizmati ba'zida Temur razvedkasidan ham yaxshi bo'lганligi ta'kidlanadi. "Maxfiy hizmat boshlig'i amir Azizuddin ham undan hayiqadi. Saltanat xavfsizlik xizmati vaziri lavozimidagi Azizuddin Saroy Mulk xonimning shaxsiy razvedkasi mavjudligi

<sup>3</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. - Тошкент: Шарқ, 1997. – 110 б.

<sup>4</sup>Хондамир. Хабиб ус-сиyr фи ахбори афроди башар. Форс тилидан Ж.Хазраткулов ва И.Бекжонов таржимаси. – Тошкент, 2008.– 166 б.

<sup>5</sup>Хондамир. Хабиб ус-сиyr фи ахбори афроди башар. Форс тилидан Ж.Хазраткулов ва И.Бекжонов таржимаси. – Тошкент, 2008.– 179 б.

<sup>6</sup> Зиё А. Ўзбек аёллари тарих саҳнасида. – Тошкент: "Фан", 2002. – 37 б.

va uning ayg‘oqchilar tarmog‘i o‘zinikidan kuchli ekaniga iqror bo‘lgan. Bu tarmoq 27 mamlakatni tasarruf qiluvchi sultanatning har bir hududida va hatto xorij ellarda ham benuqson ishlaydi. Go‘zal kanizaklar, ayyor mastonalar, otinoyilar va tadbirkor savdogarlar uning hizmatida. Turk sulton Boyazidning rafiqasi ariya Olivera ham shular qatorida Bibixonimga ixlos ila xizmat qiladi. Mariya shu katta malika ta’sirida nasroniylikdan voz kechib muslima bo‘lgan. Serbiya qiroli Stefan, akasi saroyida yashaydi, Bibixonim bilan yozishmalar qiladi.”<sup>7</sup>

Temuriylar xonadonining yana bir vakili malika Gavharshod begin ham Temuriylar sultanatida o‘z o‘rniga ega edi. Malika Shohruh Mirzo nikohiga 1394-yil kirgan<sup>8</sup>. Gavharshod begin G‘iyosiddin taxxonning qizi bo‘lib, keyinchalik malika kabi boshqa qizlari Nigor og‘a va Saodat og‘alarni ham Temur o‘g‘li Umarshayxning farzandlari Pirmuhammad mirzo va Rustam mirzolarga nikohlatib, quda-andachilik aloqalarini yanada mustahkamladi. Gavharshodbeginning otasining keyingi faoliyati haqida aniq ma’lumotlar mavjud emas.

Malika o‘z turmush o‘rtog‘i Shohruh Mirzo davrida Saroy Mulk xonim kabi hukmdor safarga ketgan chog‘i sultanat ishlarida faol bo‘lganligini tarixiy manbalardagi ma’lumotlar tasdiqlaydi. Xususan, Shohruh Mirzo Iroq va Ozarbayjon tomon yurish qilgan vaqtida Mahdi ulyo Gavhar Shod begin Hirotda qoladi, shahzoda Jo‘giy bahodir malikaga sultanat ishlarida ko‘maklashadi<sup>9</sup>. Bundan ko‘rinib turibdiki, Mahdi ulyoning davlat boshqaruvidagi yuritgan siyosatiga hukmdor ishonch bildirgan. Shu sababli, safar oldi malikani dorulsaltana ishlariga bosh etib tayinlaydi. Malikaning maxsus xos uzuk-muhri ham mavjud bo‘lgan. Bunday uzuk-muhrining mavjudligi malikaning davlat boshqaruvidagi o‘rni beqiyosligi va xatto ba’zi farmonlarni hukmdor nomidan ham chiqazish vakolati mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. Bu uzuk-muhr bodom shaklida kumushdan 1457-yilda Hirotda ishlangan bo‘lib, temuriylar davri hunarmandchiligining yorqin namunasi hisoblanadi. Uzuk-muhr hozirda Sankt-Peterburgdagagi Ermitaj muzeyida qimmatbaho ashyolar fondida saqlanib kelinmoqda.

Malikalarning sultanat hayotidagi yana bir muhim o‘rnini malikalar odatda, ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro adovatni hal qishda yoki yaxshi qo‘sni chililik siyosatini yanada mustahkamlashda nikoh munosabatlari orqali qarindoshlik aloqasi bilan bog‘lashda muhim hisoblanganlar. Masalan, Amir Temur Xorazmga bir necha bor

<sup>7</sup> Содиков Х. Амир Темур салтанатида хавфсизлик хизмати:(тариҳий бадиалар). – Т.: ART FLEX, 2010. – 246 б.

<sup>8</sup> Файзисев Т. Темурий маликалар. – Тошкент: 1994.– 8 б.

<sup>9</sup> Абдураззок Самарқандий. Матлаи сайдайн ва мажмай баҳрайн. 2-жилд, 1-қисм. / Форс тилидан А. Ўринбоев таржимаси. – Тошкент: 2008. – 381 б.

yurish qiladi<sup>10</sup>. Shahar qamali vaqtida hukmdor Xusayn So‘fi vafot etadi. Yangi hukmdor Yusuf So‘fi bilan Temur esa sulk tuzadi. Sulk esa Yusuf So‘fining inisi Oq So‘fining qizi Sevinbeka (malikaning ismi ko‘p tarixiy manbalarda “Xonzoda” nomi bilan mashhur)ni Temur o‘g‘li Jahongir Mirzoga olib berishi bilan tuziladi<sup>11</sup>.

Amir Temur o‘zining ishonchli kishilarini o‘z atrofiga jamlashga ham harakat qildi. Masalan, Temurbek urug‘idan bo‘lgan, sultanatga ko‘tarilishidan boshlab u bilan birgalikda harakat qilgan, unga yordam bergen eng safdoshlaridan bo‘lgan bir chig‘atoy (bek) bor edi. Temurbek unga o‘z singlisini berib, oliy amaldorlar darajasiga ko‘targan va ko‘pchilik ustidan boshliq qilib tayinlagan<sup>12</sup>.

Keyingi o‘rinlarda malikalar vositasida sulk tuzilish holatlaridan yana birini tahlil qilamiz. Bobur Mirzo so‘nggi bor Samarcanni egallagandan so‘ng shaharni Shayboniyxon qamal qiladi. Shunda Bobur qamalni yorib chiqa olmaydi va Shayboniyxon Boburga sulk taklif qilib opasi Xonzoda beginni so‘raydi. “Ana shunday vaqtida Shohibek (Shayboniyxon)xon «agar o‘z egachingiz Xonzoda beginni menga xotinlikka bersangiz, oramizda sulk tuziladi va hamjihatlik aloqalari o‘rnatalidi»,— deb aytgizib yubordi. Oxir Xonzoda beginni o‘scha xonga berib, o‘zlarining qaytishlari zarur bo‘ldi”<sup>13</sup>. Bu tarixiy voqeaga barcha turlicha yondashadi. Boburning shaxsan o‘zi Xonzoda begin qamal vaqtida kechqurun shahar darvozasidan chiqib ketmoqchi bo‘lganida Shayboniyxonga asir tushganini aytib o‘tadi. «Bu mahalda Shayboqxon sulk so‘zini orag‘a soldi. Agar bir tarafdin umidvorlik bo‘lsa edi, yo zahira bo‘lsa, sulk so‘ziga kim qulq solur erdi. Zarurat bo‘ldi, sulhguna qilib, kechadin ikki pahr bo‘la yovushub edikim. Shayxzoda darvozasidin chiqildi: Volidam xonimni olib chiqtim. Yana ikki xotun kishi chiqti: biri Bichka xalifa edi, yana biri Minglik ko‘kaltosh edi. Mening egachnm Xonzoda beginm ushbu chiqqonda Shanboqxonning iligiga tushti...»<sup>14</sup> Garchi Xonzoda beginning Shayboniyxonga turmushga chiqishi haqidagi ikki xil ma’lumot garchi zid bo‘lsa-da, ammo bu yerda Bobur o‘z asarida o‘zini qutqarish uchun o‘z opasini dushmaniga bergani haqidagi haqiqatni ochiq aytga olmaganga o‘xshaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mamlakat boshqaruvida malikalarning ham o‘z o‘rni mavjud bo‘lib, ular bu borada faol bo‘lgan. Biroq musulmon

<sup>10</sup> Файзиев Т. Темурийлар шажараси. –Тошкент: Info Capital Group, 2020.– 69 б.

<sup>11</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. - Тошкент: Шарқ, 1997. .-74 б.

<sup>12</sup> Рун Гонсалес де Клавихо. Самарқандга- Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406 йиллар). –Тошкент: O‘zbekiston, 2010.– 151 б.

<sup>13</sup> Гулбаданбегим.Хўмоюннома; Захириддин Мухаммад Бобур-нинг ўғли — Хўмоюн подшоҳнинг ахволи//Форс тилидан С. Азимжомова тарж.. – Тошкент: Маънавият, 1998.–22 б.

<sup>14</sup> Бобурнома. Тошкент: 1960. –151 б.

an'analariiga muvofiq malikalarning nomlari ko‘p hollarda tilga olinmaganligi sababli ular haqida kam ma'lumotlar uchraydi. Biroq bu borada tadqiqot olib borish mamlakatimiz tarixining muhim sahifalarini yoritish zarurligi sababidan ham muhim bo‘la oladi.

